

XOTIRA BOR EKAN TIRIKDIR MILLAT!

Husnidabonu Xayrullayeva

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, Islomshunoslik ta'lim yo'nalishi 1-
bosqich talabasi*

Tinchlik buyuk-ne'mat. Tinchligini yo'qotgan xonadon ham, mamlakat ham aslo xotirjam bo'la olmaydi. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda tinchlik-osoyishtalik, hamjihatlik va bag'rikenglik mustahkam qaror topdi. Kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, mehr-oqibat tuyg'ulari odamlar qalbi va shuuridan chuqur joy oldi. Ajdodlar xotirasini yod etib, ezgu ishlarini davom ettirish, bugun saflarimizda yurgan, el-u yurt tinchligi va ravnaqi yo'lida xizmat qilgan keksalarni e'zozlash ma'naviy hayotimizning ajralmas qismiga aylandi.

Barcha insonlar o'z iste'dodlarini erkin namoyish qilish, bepul ta'lim olish, sifatli tibbiy xizmatdan foydalanish va eng muhimi ko'cha-ko'yda erkin va xavfsiz yurish imkoniyatiga ega bo'ldi. Mana shu o'rinda bu dorilomon kunlar biz uchun nimaning evaziga berildi degan savolning paydo bo'lishi, tabiiy. Bu savolga javob topish uchun esa tarixga yuzlanish eng tog'ri yo'l ekanligi kundek ravshan. Xalqimiz bu kunlarga osonlikcha yetib kelgani yo'q. Ozodlik yo'lida xalqimiz behisob qurbonlar bergan. Bugungi yorug' kunlar uchun hayotini bag'ishlagan minglab millatparvar fidoyi insonlar shafqatsiz qatag'onga uchragan. Ular orasida ziyolilar, qanchadan-qancha kosib va dehqonlar, hunarmandlar, bir so'z bilan aytganda, turli millatga mansub yuz minglab oddiy odamlar bor edi. O'z vaqtida turli nohaq ayblar bilan otilgan, bekafan, bejanoza ko'mib tashlangan kishilarning oila a'zolari, qarindosh-urug'lari ham xo'rlik va haqoratga mahkum etilgan edi. Jafokash xalqimiz asrlar davomida ne-ne sinovlar, mashaqqatli kunlarni ko'rmadi. Ayniqsa, mash'um 1937-1953 yillarda sodir etilgan bedodlikni tasavvur etish uchun O'zbekiston bo'yicha qariyb 100 ming kishi qatag'onga uchrab, 100 ming nafari otib tashlanganini eslash kifoya. Birgina Ulug' Vatan urushi davrida O'zbekistonda yashagan 6,5 million aholining 1,5 milioni frontga ketgan, ulardan 420 mingi qaytib kelmagan, 640 ming nafari yaralangan. 120 ming o'zbekistonlik orden va medallar bilan taqdirlangan. Jumladan, 338 nafar o'zbekistonlik Sovet Ittifoqi qahramoni unvoniga sazovor bo'lgan. Tahlillarga ahmiyat beradigan bolsak, 1941 — 1945 yillarda bashariyat boshiga misliz kulfatlar yog'dirgan Ikkinchi jahon urushi frontlarida O'zbekistonlik jangchilar o'zlarining botir, mard, qo'rqmas, jasurlik xislatlarini namoyon qilib qahramonlik namunalarni ko'rsatdilar.¹

¹Islom Karimov.: "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" 98-101-betlar
T O S H K E N T «MA'NAVIYAT» 2008

O'zbekiston mudofaaning moddiy ehtiyojini ta'minlashda oldingi saflarda turib, nimaiki zarur bo'lsa, barchasini ayamay sarfladi. Chunonchi, urush yillarida aholi tomonidan mudofaa jamg'armasiga 649,9 mln. so'm naqd pul, 4 mlrd 226 mln so'm zayom puli, 52,9 kg oltin va kumush topshirildi. Armiyaga 7 518 800 ta gimnastyorka, 2 636 700 ta paxtalik, 2 221 200 ta etik va qo'njli botinka yuborildi. Engil sanoat vazirligi korxonalari tomonidan frontga 246 918 700 so'mlik mahsulot jo'natilgan. Kiyim-bosh va oziq-ovqat mahsulotlarini Samarqand, Namangan, Xorazm va boshqa viloyatlar ham frontga jo'natib turganlar. Shuningdek, hukumat vakillari tomonidan vagonlarda katta miqdorda sovg'alar olib ketilganligi haqida ma'lumotlar mavjud. Masalan, 1942 yili bir guruh vakillar Leningradga 600 vagon un va go'sht, 100 vagon guruch, 60 vagon quruq meva olib borganlar.

Ikkinchi Jahon urushining to'rt yili davomida O'zbekiston davlatga 4 806 000 tonna paxta, 54067 tonna pilla, 1 066 000 tonna g'alla, 195 000 tonna sholi, 108 000 tonna kartoshka, 374 000 tonna sabzavot va ho'l meva, 35289 tonna quruq meva, 57444 tonna uzum, 1 593 000 tonna go'sht, 5 286 000 dona teri topshirgani ma'lum. Ular ham mudofaa ehtiyojlariga sarflangan, albatta. Bundan tashqari, urush yillarida O'zbekiston aholisi mudofaa jamg'armasiga jami 649 900 000 so'm naqd pul o'tkazib bergan. Xalqimiz harbiy xizmatchilarning oilalariga ham katta yordam bergan. Chunonchi, 1943 yili ularga 13 858 500 so'm pul, 1 308 400 kilo oziq-ovqat, 20 750 kiyim-bosh, 40 000 kubometr yoqilg'i, 73 500 pud g'alla, 10 000 bosh qo'y, 2000 bosh qoramol topshirilgan.²

Shuningdek, o'zbek xalqi Rossiya, Ukraina, Belarus, Moldaviya va boshqa joylardan ko'chirib keltirilgan o'n minglab kishilarga boshpana berib, mehribonlik va g'amxo'rlik namunalari ko'rsatdi. Jang bo'layotgan hududlardan ko'chirilgan bir million shaxs boshpana, kiyim-bosh va oziq-ovqat bilan ta'minlandi. Minglab etim bolalarni o'zbek oilalari o'z qaramog'lariga oldilar, farzandlaridan kam ko'rmay tarbiyaladilar. O'zbek xalqi jangga ketgan turli millat vakillarining oilalaridan ham moddiy yordamini ayamadi. Davlatimiz 113 ta harbiy kasalxona — gospitalni ham otaliqqa oldi.

Fashistlarning tor-mor qilinishida O'zbekistonda urush yillarida ishlab chiqarilgan qurol-aslahalar katta ahamiyat kasb etdi. Sanoatning asosiy qismi harbiy qurol ishlab chiqarishga yo'naltirilib, ular jang maydoniga uzluksiz yuborib turildi. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, 2100 samolyot, 17342 samolyot motori, 17100 minomyot, 27 000 tankka qarshi otadigan zambarak qismlari, 60 000 harbiy kimyoviy anjom, 22 million mina, 560 000 snaryad, 2 million 318 ming aviasiya bombasi, 1 million dona granata, 100 chaqirimdan ziyod sim, dala radiostansiyalari, tank va samolyotlar uchun 3 milliondan ortiq radiolampa, 5

² <https://darakchi.uz/oz/91703>

bronepoezd, 18 harbiy-sanitar va hammom o'rnida foydalaniladigan hamda kir yuviladigan poezd, 2200 ko'chma oshxona olib ketildi.

Shuningdek, yurtdoshlarimizning shaxsiy pullari hisobidan tayyorlanib, jang maydoniga yuborilgan qurol-aslahalar ham kam bo'lmagan. Masalan, tank koloniyasi va aviaeskadriliya qurish uchun aholidan 320 000 000 so'm to'plangan. Chunki Germaniyada tuzilgan "Turkiston legioni"³ 1 mln. 800 ming kishini o'z ichiga olgan. Shu tariqa xalqimiz Ikkinchi jahon urushida fashistlarni tor-mor etishga molini ham, jonini ham tikdi. Bamisoli topgan bitta nonini to'rtga bo'lib, bittasini o'ziga, qolganini bevosita frontga, so'ng respublikaga ko'chirib keltirilganlarga, jangga ketganlarning oilalariga, harbiy gospitalarga, fashistlardan ozod qilingan hududlarning och-nochor aholisiga berdi. Ayni paytda bir milliondan oshiq farzandlari fashistlarga qarshi janglarda mardonavor kurashdi. Ulardan bir necha yuz ming kishi halok bo'ldi va jarohatlandi Ikkinchi jahon urushi o'zbek xalqiga ham beqiyos katta talofat keltirdi. Minglab ayollar beva va bolalar yetim bo'lib qoldilar. Ota-onalar farzandlari dog'ida qayg'u-alam bilan bu dunyodan ko'z yumdilar. Urush yillarida chek-chegarasi yo'q xarajatlar xalqni shu darajada qashshoqlashtirdiki, ta'riflashga qalam ojizlik qiladi. Qanchadan-qancha odamlar ochlik va kasalliklardan o'ldi. Urush o'zbek xalqining bor-yo'g'idan tamomila ayirdi, ko'rpa-yostig'i, boshqa ro'zg'or anjomlaridan mosuvo bo'ldi, uy-joyi xarobaga aylandi, och va yupun bo'lib qoldi. Ocharchilik va kasalliklar qishloqlarda avjiga minib, ko'p odamlarning yostig'ini quritdi. Bolalarning orasida ham o'lim ko'p uchrardi. Biroq sho'ro davlatining e'tiborsizligi tufayli urush vaqtida orttirilgan qiyinchilik va azob-uqubatlar tamomila bartaraf qilinmadi. Ayniqsa, urush nogironlarining qadr-qimmatini o'rniga qo'yilmay, ular o'z holiga tashlab qo'yildi. Bu ma'lumotlar botir jangchilarimiz, sabrli xalqimiz Ikkinchi jahon urushida yuksak jasorat ko'rsatganligidan dalolat beradi.

Bu ko'rsatkichlar shuni anglatadiki, insoniyat bu kunlarga yetib kelish uchun turli qonli yo'llarni bosib o'tgan, boshiga kelgan qiyinchiliklarni qiyin sanamay qo'ldan kelganicha yurtni mudofaa qilish uchun mustahkam turgan, hattoki, ayollar ham bu jabhada o'z jasoratlarini namoyon qilgan. Shu nuqtai nazardan, bu yorug' va dorilomon kunlar yo'lida qurbon bo'lganlar ruhini shod etish, mo'tabar keksalarimiz duosini olish, tinch hamda osoyishta zamonning qadriga yetish, shukronalik tuyg'ularini his etish bizga katta quvvat bag'ishlaydi, ruhiyatimizni poklab, yangidan-yangi bunyodkorlik ishlariga chorlaydi. Inson bor ekan, xotira – muqaddas. Hech kim, hech narsa esdan chiqmaydi. Xalq bugungi tinch-xotirjam zamonni asrab-avaylash, qadriga yetish uchun ham urushni, uning qahramonlarini, g'alabaga munosib hissa qo'shgan hech bir kishini xotirasidan forig' qilmaydi. Ana shunday tarixiy haqiqatni anglab yetgan holda, Birinchi Prezident Islom Karimovning tashabbusi bilan mamlakatimizda istibdod qurbonlari

³ <https://insonhuquqlari.uz/oz/news/m7068>

sha'nini tiklash, tarixiy adolatni qaror toptirish borasida qator xayrli ishlar amalga oshirildi. Poytaxt Toshkent shahrida "Shaxidlar xotirasi" ziyoratgohi bunyod etildi. 2001 yil 1-may kuni Prezidentimizning "Qatag'on qurbonlarini yod etish kunini belgilash to'g'risida"gi Farmoni e'lon qilindi. Mazkur farmonga ko'ra, har yili 31-avgust kuni - Mustaqillik bayrami arafasida "Shahidlar xotirasi"⁴ yodgorlik majmuida qatag'on qurbonlarini yod etish marosimi bo'lib o'tadi. Qatag'on qurboni bo'lgan o'nlab ziyolilarning ilmiy va abadiy asarlari chop etilib, mutaxassislar tomonidan keng o'rganilmoqda. Ta'kidlash joziki, Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 4-apreldagi "Ikkinchi jahon urushi qatnashchilarini rag'batlantirish to'g'risida"gi⁵ farmoni va "Xotira va qadrlash kuniga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga binoan jangohlarda mardlik va jasorat namunalarini ko'rsatgan barcha urush qatnashchilari va nogironlariga 5 million so'm miqdorida bir yo'la pul mukofoti berildi. Mazkur qarorga muvofiq, Ikkinchi jahon urushi qatnashchilarining istaklari asosida ularning o'zlari jang qilgan mamlakatlarga bir nafar kuzatuvchi bilan safarini tashkil etish, urush faxriylarining xohishlari asosida Yalta va Kislovodsk shaharlaridagi "O'zbekiston" hamda respublika hududidagi boshqa sanatoriylarga bepul yuborilishini tashkil etish mamlakat hukumatiga vazifa sifatida yuklatildi. Bu islohotlarning barchasi bugungi tinch va osuda kunlarimiz uchun kurashgan, fidokorona mehnat qilgan yurtdoshlarimizga hurmat-ehtirom ko'rsatish, tinchlik-osoyshtalik yo'lida jonini fido qilgan ajdodlarimiz xotirasini yod etish xalqimizga xos azaliy qadriyat ekanining yana bir tasdig'i bo'ldi. Xalqimiz tarixini o'rganar ekanmiz, tinchlikni asrash, uni turli g'arazli niyatli kimsalarning g'oyaviy tahdidlaridan saqlash, shahidlar xotirasini abadiy yod etish, urush qatnashchilariga hurmat bajo keltirish hamda har qanday vaziyatda yurtimizning rivojlanishi uchun hissa qo'shishimiz mana shunday qiyinchilik bilan erishilgan ne'matning shukronasini ado etganligimizning ramzi hisoblanadi. Va shuni unutmashligimiz kerakki, bu tinchlik, bu mustaqillikka xalqimiz osonlik bilan erishgan emas. Uni qadriga yetish, ardoqlash, biz yosh avlodlarning ham farz ham qarzimizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <https://darakchi.uz/oz/91703>
2. <https://insonhuquqlari.uz/oz/news/m7068>
3. <https://religions.uz/uz/news/detail?id=134>
4. "Yangi O'zbekiston" gazetasi
5. "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" asari